



ONA TILI O'QITISH METODIKASIDA USUL VA METODLARNING QO'LLANILISH O'RNI VA AHAMIYATI

Oqmonova Sevinchoy Olloyor qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zga tili guruhlarida o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8084704>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-June 2023 yil

Ma'qullandi: 24-June 2023 yil

Nashr qilindi: 27-June 2023 yil

KEY WORDS

Analitik-sintetik metodi, nutq o'stirish metodi, an'anaviy darslar, zamonaviy dars tizimi..

ABSTRACT

Ushbu maqolada ona tili darslarida qo'llash lozim bo'lgan metod va usullar yuzasidan fikr va mulohazalar yuritilgan. Ona tili darslarida o'quvchi – yoshlarga bilim berish yuzasidan turli xil metod va usullarad foydalanish yaxshi samara berishi bilan ajralib turadi. Shuningde, ona tili darslarining samarali natijalarga tayanilgan holatda tashkil etilishi ham bilim darajasining uzviy malaka bilan alo qadorlik yuzasidan kelib chiqishi bilan ham ahamiyatli hisoblaniladi. Ona tili darslarida o'quvchilarning qiziqtirilishi va ularga bylining namunaviy tarzda berilishi ham ahamiyat darajasiga ko'ra yuksak turadi. Ona tili o'qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari ham o'quvchi-yoshlarga sifatli va malakali bilim berishga qaratilgan ekanligi bilan ham xarakterlaniladi deb aytish mumkin.

Bugungi kunda ona tili darslarida berilgan mavzu yuzasidan anglashiladigan qoidalarining mavzuga doir siyosiy yoki ijtimoiy axborotlar umummilliyligi bilan ham ifodaviylikni saqlab qolgan holatda ifodalash katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra metopd va usul tushunchalari o'quvchilarning bilim olishlarida qo'l keluvchi ifoda sifatida ham qo'llanilishi bejiz emas. Shuni unutmaslik kerakki, pedagogika sohasining uzviy birligi va mutanosibligini saqlash barobarida qo'l keluvchi va qo'llaniluvchi uslublar va meyorlarga xos tarzda qo'llaniluvchi birliklar muqobilining ma'lum bir metodlar umumlashmasida qo'llanilishi yaxshi samara berishi bilan ajralib turadi. "Analitik-sintetik (tovush-tarkib) tovush metodiga K.D.Ushinskiy asos solgan. Bu metod hozirgi kunga qadar ancha takomillashdi. Shu bois analitik-sintetik tovush metodining an'anaviy hamda shakllanish, tashkil topish jarayonidagi tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodi shaxsni shakllantirish maqsadiga ko'ra ta'limiy va o'stiruvchi xarakterda bo'ladi, nutqiy mashqlar orqali aqliy o'sishini ta'minlaydi, o'qishning ongli bo'lishini talab etadi.
2. Analitik-sintetik tovush metodi tashkiliy tomondan quyidagi ikki davrga bo'linadi:
 - a) alifbegacha tayyorlov davri;
 - b) alifbo davri.

Bunda yozuvga o'rgatish o'qishga o'rgatish bilan parallel holda olib boriladi.

3. Analitik-sintetik tovush metodida psixolingvistik nuqtai nazardan quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

a) savod o'rgatish bolalarning jonli nutqiga, ular egallagan nutq malakasiga asoslanadi".[1] Haqiqatdan ham ona tili o'qitish metodikasining uzviy va amaliy tarzda metodlar vulan birga malga oshiriluvchi dars texnologiyalarining tutgan o'rni va samaradorli aksariyat hollarda namunaviy prinsiplik asosida amalga oshiriladi. Bugungi kunda ta'lim sohasiga berilayotgan e'tiborning rivojlanib borishi barobarida ona tili sohasiga oid bo'lgan metod va uslublarning maxsus qolipshtirilishi natijasida notasiya tarzida amalga oshirilishi ham juzatilib kelinmoqda. Ona tili o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati yuzasidan intellekt xarita, fsmu, bir minut kabi metodlarning qo'llanilishi ham yaxshi samaradorlikni keltirib chiqarayotgani ham anglashiladi. Shuni unutmaslik lozimki, an'amaviy dars tizimi va zamonaviy ta'lim tizimi asosidagi ta'lim berilishining ona tili o'qitish borasida o'zaro aloqaviy munosabatlarning birikuvini ham yaxshi samara beradi. Misol uchun: zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari doirasida ona tili darslari uchun xos bo'lgan yoki xoslangan metodlardan foydalanish o'zining til tizimidagi qonuniyatlari bilan ham anglashiladi. Umumiy qilib aytganda ona tili darslarida qo'llaniluvchi metodlarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- boshlang'ich sinflar uchun;
- o'rta sinflar uchun;
- yuqori sinflar uchun;
- oliy ta'lim talabalari uchun.

"Nutq o'stirish metodikasi. Bu bo'lim boshlang'ich sinflarda alohida o'rin tutadi. Bolalar birinchi navbatda tilni, nutqni o'quv predmeti sifatida angelaydilar, ular xohlagan va qiziqarli narsalarnigina emas, balki zaruriy narsa va hodisalar haqida o'ylab, rejali nutq tuzish zarurligini ham tushuna boshlaydilar. Ular o'zining grafik shakli bilangina emas, balki leksikasi, sintaktik va morfologik shakli bilan ham og'zaki nutqdan farq qiladigan yozma nutqni ham egallaydilar. Metodika bolalar nutqini boyitishi, sintaktik va bog'lanishli nutqini o'stirishni ham ta'minlashi kerak. Shuni aytib o'tish kerakki, bog'lanishli nutq maktablarda alohida bo'lim sifatida o'rganilmaydi, u til fanining boshqa bo'limlari bilan bog'langan holda shakllantiriladi.

Ona tili o'qitish metodikasi fanining metodologik va ilmiy asoslari. Ona tili o'qitish metodikasining metodologik asosi borliqini bilish nazariyasidir. Bu fanning bosh vazifasi o'quvchilarning o'zbek tili lug'at boyligini to'liq o'zlashtirib olishlarini ta'minlashdir".[2] Haqiqatdan ham, ona tili o'qitish metodikasining bosh bo'g'inlaridan biri bu o'quvchi-yoshlarda nutq o'stirish texnologiyasi bilan aloqadorlikni tashkil etib, o'quvchilar o'z ona tillarida erkin va qulay tarzda so'zlashlari lozim bo'ladi. Shuningdek, qo'llaniluvchi metodlar o'zining ifodalanish xususiyatiga ko'ra qandaydir maqsadga xoslangan yoki yo'naltirilgan bo'lishi bilan ham ajralib turadi. Misol uchun: boshlang'ich sinf o'quvchilarning aksariyat qismida qo'llaniluvchi metodlar mavzuning o'zlashtirilishiga qarab emas, aksincha, imloviy savodxonlik darajasini oshirish yuzasidan qo'llash ham maqsadga muvofiqdir. Bunga sabab, o'quvchilarning so'zlarni o'zaro farqlay olish funksiyasi bilan mutanosib aloqaga kirishuvi yuzasidagi ham amalga oshirilishi deb baholash mumkin bo'ladi. Ona tili o'qitish metodikasida usul va metodlarning qo'llanilish o'rni va usuli ahamiyatlilik darajasini yo'qotmay kelmoqda.

“Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi yuqori sinflarda ona tili o‘qitish metodikasining dastlabki bosqichi bo‘lib, u tekshiradigan masalalarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tadbiqan (muvofig ravishda) o‘rgatadi. Shu bilan birga, boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish grammatika, imlo va unga bog‘liq holda nutq o‘stirish metodikasinigina emas, balki xat-savod o‘rgatish, sinfda va sinfdan tashqari o‘qish metodikalarini ham o‘z ichiga oladi. Shulardan kelib chiqib, boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi fani quyidagi vazifalarni bajaradi: a) boshlang‘ich sinflarda ona tili kursining mazmuni, hajmi va mavjud tizimini, ya‘ni kursning (xat-savod o‘rgatish, o‘qish, grammatika, imlo, nutq o‘stirish va h.k.) dasturini belgilash va asoslash”. [3];

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Sharoljon Sariyev, Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent «NOSIR» nashriyoti. 2009
2. Jo‘rayeva Nasiba. Boshlang‘ich sinflarida ona tili o‘qitish metodikasining dolzarb masalalari. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES - 2021

